

SURXONDARYO VILOYATIDA IJTIMOYIY-TARIXIY OMILLAR ASOSIDA SHAKLLANGAN TOPONIMLAR**To'raxonova Farangiz Sherali qizi**

Termiz davlat universiteti 4 - kurs talabasi.

Normurodova Zarifa

Ilmiy rahbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20570357>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Surxondaryo viloyati hududida ijtimoiy-tarixiy omillar ta'sirida shakllangan toponimlarning leksik-semantik va etimologik xususiyatlari tahlil qilinadi.

Toponimlarning yuzaga kelishida tarixiy voqealar, etnik jarayonlar, urug'-qabila nomlari, mashhur shaxslar faoliyati hamda aholi turmush tarzi bilan bog'liq omillarning o'rni yoritiladi. Shuningdek, Surxondaryo hududidagi ijtimoiy-tarixiy toponimlarning milliy-madaniy ahamiyati va ularning xalq tarixini aks ettiruvchi lingvistik manba sifatidagi xususiyatlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari hudud toponimlarining shakllanishida tarixiy xotira va etnomadaniy omillarning muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Surxondaryo toponimlari, toponimika, ijtimoiy-tarixiy omillar, etnotoponimlar, antropotoponimlar, leksik-semantik tahlil, etimologiya, onomastika, lingvomadaniyat, tarixiy xotira.

Аннотация. В данной статье рассматриваются лексико-семантические и этимологические особенности топонимов Сурхандарьинской области, сформировавшихся под влиянием социально-исторических факторов. Анализируется роль исторических событий, этнических процессов, названий родов и племён, деятельности выдающихся личностей, а также особенностей образа жизни населения в формировании географических названий региона. Особое внимание уделяется национально-культурной значимости социально-исторических топонимов и их роли как лингвистического источника, отражающего историю народа. Результаты исследования показывают, что историческая память и этнокультурные факторы занимают важное место в процессе формирования топонимической системы Сурхандарьинской области.

Ключевые слова: топонимы Сурхандарьинской области, топонимика, социально-исторические факторы, этнотопонимы, антропотопонимы, лексико-семантический анализ, этимология, ономастика, лингвокультурология, историческая память.

Annotation. This article examines the lexical-semantic and etymological features of the toponyms of the Surkhandarya region that were formed under the influence of socio-historical factors. The study analyzes the role of historical events, ethnic processes, tribal and clan names, the activities of prominent individuals, and the lifestyle of the local population in the formation of geographical names. Special attention is paid to the national and cultural significance of socio-historical toponyms and their function as linguistic sources reflecting the history and cultural heritage of the people. The findings reveal that historical memory and ethnocultural factors have played a significant role in the development of the toponymic system of the Surkhandarya region.

Keywords: Surkhandarya toponyms, toponymy, socio-historical factors, ethnotoponyms, anthroponymic toponyms, lexical-semantic analysis, etymology, onomastics, linguoculturology, historical.

Mustaqillik davrida nomshunoslik, xususan, joy nomlari sohasiga ham jiddiy e'tibor berilib, toponimik komissiyalarning respublika, viloyat, tuman bo'linmalari tashkil etildi.

Toponim olim Sh.Turdiqulov T.Enazarovning izlanishlariga alohida urg'u berib, bugungacha toponimlar tilshunoslik geografik va tarixiy yo'nalishlarda umumiy, tavsifiy hamda izohli tarzda o'rganilganini ta'kidlaydi va ularning etimologik tahliliga kam munosabat bildirilganini qayd etadi. Toponimika har bir xalq tarixi, etnografiyasi ularning ijtimoiy-siyosiy qarashlari bilan bog'lanib ketadi. Kishilarga va joylarga nom berish turli davrlarda xalqning ijtimoiy hayot sharoitlari, jamiyatda tutgan o'rni, uning madaniy saviyasi, dunyoqarashi, urf-odati, rasm-rusumlari bilan bog'liqdir. Nomlar tabiat va jamiyatdagi muayyan o'zgarishlar bilan bog'liq holda, ma'lum qonuniyatlar asosida vujudga keladi va xalq tarixi bilan uzviy bog'liqdir.

Atoqli otlar tarixchilar geograflar, tilshunoslar uchun ham boy material beradi. Tilshunos olimlarning fikrlariga ko'ra o'tmish onomastikasini o'rganish bilan bog'liq murakkab muammolardan biri "tarixiy nomlar" tushunchasini konkretlashtirish va tarixiy nomlar majmuini (tarixiy norma) zamonaviy (hozirgi davr) ismlar fondidan (sinxronik, ya'ni davriy norma) farqlash, chegaralash masalasidir. Chunki tarixiy (qadimiy) deb yuritiluvchi ko'pgina nomlar hozirgi davr o'zbek onomastikasida iste'molda mavjuddir. Bunday nomlar tilda paydo bo'lish davri va yashash davriga, ya'ni stajiga ko'ra tarixiy bo'lsa-da, qo'llanilishi, hayotiyligiga ko'ra zamonaviy hamdir. Uzoq tarixga nazar tashlasak joy nomlarining nomlanishi insonlar ilk bor qo'nim topganligiga qarab va hayot uchun muhim hisoblangan suvliklar, daryolar, buloqlar bilan bogliqligini ko'rishimiz mumkin. O'zbek tilida ham xuddi shu kabi ma'nolardagi joy nomlarining nomlanishini kuzatishimiz mumkin.

„Qo'rg'on“ – so'zi bilan bog'liq joy nomlari: Kattaqo'rg'on, Oqqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Jarqo'rg'on.

„Saroy“ – so'zi bilan bog'liq toponimlar: Oqsaroy, Ko'ksaroy, Bog'chasaroy „Shahar“ – so'zi bilan bog'liq joy nomlari: Yangi shahar, Eski shahar. „Qal'a“ so'zi bilan bog'liq toponimlar: Elliqqal'a, Tuproqqal'a, Ayazqal'a. „Tog“ so'zi bilan bog'liq joy nomlari: Bobotog', Qoratog'. „Suv“ so'zi bilan bog'liq joy nomlari: Bo'zsuv, Oqsuv, Qorasuv, Sho'rsuv. „Soy“ so'zi bilan bog'liq toponimlar: Tentaksoy, Chuqursoy, Chimyonsoy, Chuqursoy.

Ijtimoiy-tarixiy omillar asosida shakllangan toponimlarga misollar:

Denov – forscha “deh” (qishloq) va “nav” (yangi) so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, “yangi qishloq” ma'nosini anglatadi. Bu nom hududning ma'lum tarixiy davrda qayta barpo etilganini ko'rsatadi.

Qumqo'rg'on – “qo'rg'on” komponenti tarixiy inshootlarni bildiradi. Ushbu nom hududda qadimda mavjud qal'a yoki istehkom mavjud bo'lganidan dalolat beradi.

Qarluq (qishloq nomi) – qadimgi turkiy qabilalardan biri bo'lgan qarluqlar nomidan kelib chiqqan. Bu etnotoponim hisoblanadi. Bu nom ijtimoiy-tarixiy nomini yaqqol namoyon qiladi.

Do'rmon (qishloq nomi) – o'zbek xalqining urug' va qabilalari nomi asosida shakllangan toponimlardan biri hisoblanadi.

Ayritom-Termiz tumanidagi qadimgi shahar xarobasi.

Barlosguzar-Sariosiyo tumani. Barloslar yashagan ko'cha.

Bobolochin-Qumqo'rg'on tumanidagi qishloq. Qishloq nomi xurosonlik mashhur mashoyix Bobolochinning ismidan nom olgan.

Bog'lidara-Sherobod tumanidagi qadimgi qishloq nomi. XX asrning o'rtalarigacha bu yerda 10 ta bog' mavjud bo'lgan. Bog'lidara – “quyuq bog' – rog'lardan iborat bo'lgan dara“ deganidir.

Budrach – Denov shahridagi qadimgi shahar xarobasi hisoblanadi.

Bug‘ – Sherobod tumanidagi tarixiy qishloq. Bu qishloq miloddan oldingi II – I asrlarda madaniy –siyosiy markaz hisoblangan.

Vaxshivor – Oltinsoy tumanidagi tog‘li qishloq. Bu joy nomi ilgari Vaxshimor –ilonlar shahri deb atalgan. Vaxshivor toponimi *vaxsh+i+var* so‘zlaridan tashkil topgan.

Dalvarzintepa – Sho‘rchi tumanidagi arxeologik yodgorlik.

Darband – Boysun tumanidagi tarixiy aholi punkti.

Jayraxona – Termiz shahridagi tarixiy joy nomi. Bu nom jayra yashagan joy atrofidagi ovulga qo‘yilgan.

¹ Toponimiya (yunoncha *topos*-joy, *onyma* — nom) joy nomlarini o‘rganadigan fan sohasi hisoblanadi. Toponimlar orqali qadimgi aholi mashg‘uloti, tabiat sharoiti va tarixiy jarayonlar aniqlanadi. O‘zbek toponimiyasining shakllanish bosqichlari bir necha davrga bo‘linadi:

1. Qadimgi turkiy davr
2. Arab istilosi davri
3. Fors-tojik ta‘siri kuchaygan davr
4. Sovet davri
5. Mustaqillik davri

Mazkur davrlashtirish o‘zbek toponimiyasining tarixiy-lingvistik va ijtimoiy-madaniy omillar bilan uzviy bog‘liq ravishda shakllanganligini ko‘rsatadi. Har bir bosqich muayyan siyosiy hukmronlik, til ustuvorligi va madaniy paradigmaning almashuvi bilan belgilanadi. Shu sababli davrlashtirish bevosita toponimlarning kelib chiqishi, leksik tarkibi, semantik tuzilishi va nomlash motivatsiyasi bilan chambarchas aloqador. Masalan, qadimgi turkiy davr o‘zbek toponimiyasining asosiy va tub qatlamini tashkil etadi.

Qadimgi turkiy qabilalar yashash tarzi, tabiiy muhit va xo‘jalik faoliyati asosida joy nomlarini yaratgan. Toponimlar ko‘pincha geografik relef (*tog‘*, *daryo*, *cho‘l*), fauna va flora, qabila va urug‘ nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan.

Ushbu davrda yaratilgan toponimlar fonetik jihatdan sodda, semantik jihatdan ochiq bo‘lib, xalq tilining tabiiy mahsuli sifatida shakllangan. Masalan, *suv*, *yer*, *tog‘*, *qum* kabi asosiy tushunchalar nomlashda yetakchi bo‘lgan. Arablar istilosi bilan hududda islom dini va arab tilining ta‘siri kuchaydi. Natijada toponimiyaga diniy-ma‘rifiy mazmundagi nomlar kirib keldi.

Masjid, madrasa, avliyo, ziyoratgoh bilan bog‘liq joy nomlari paydo bo‘ldi. Shuningdek, arabcha leksik birliklar turkiy toponimlar tarkibiga qo‘shilib, kompozit toponimlar vujudga keldi.

Bu davr toponimlari diniy mafkura va yangi madaniy qadriyatlarning hudud nomlariga singib borishi bilan xarakterlanadi. "Fors-tojik ta‘siri kuchaygan davrda shaharsozlik, savdo-sotiq va adabiy-madaniy hayotning rivojlanishi bilan fors-tojik tilining prestiji oshdi. Natijada ko‘plab shahar va qishloq nomlari forscha affiksalar va komponentlar asosida shakllandi.

Masalan, *-obod*, *-kent*, *-goh*, *-zor* kabi toponimik formantlar keng qo‘llanildi. Bu hol toponimlarning ijtimoiy-madaniy status bilan bog‘liq holda yaratilganini ko‘rsatadi.

Davrlashtirishning bu bosqichi toponimiyadagi madaniy ko‘p qatlamlilikni yaqqol namoyon etadi. Sovet davri toponimiyasida esa mafkuraviy va siyosiy omil yetakchi bo‘ldi.

Shuningdek, ijtimoiy-tarixiy toponimlar milliy qadriyatlarni saqlashda ham katta rol o‘ynaydi. Ular ajdodlar hayoti, tarixiy voqealar va xalqning dunyoqarashini kelajak avlodga yetkazuvchi muhim vosita hisoblanadi.

¹ Madrahimov Z. Tarixiy toponimika. – Toshkent: Navro‘z, 2017

Shu bois toponimlarni ilmiy jihatdan o'rganish, ularning kelib chiqishi va ma'nolarini aniqlash milliy tarix hamda madaniy merosni asrashda muhim ahamiyatga ega. Ko'plab toponimlar qadimgi urug' va qabila nomlari, kasb-hunar turlari, tarixiy shaxslar yoki muhim siyosiy voqealar ta'sirida shakllangan.

Masalan, ayrim hudud nomlari o'sha joyda yashagan etnik guruhlar bilan bog'liq bo'lsa, ayrimlari hukmdorlar, sarkardalar yoki tarixiy davrlarning nomlari asosida yuzaga kelgan. Bu esa joy nomlari orqali hududning o'tmishdagi siyosiy va ijtimoiy hayoti haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy-tarixiy omillar asosida shakllangan toponimlarni o'rganish tilshunoslik, tarix, etnografiya va madaniyatshunoslik fanlari uchun muhim ilmiy manba hisoblanadi. Ularni tadqiq qilish orqali xalqning boy tarixiy tajribasi, milliy qadriyatlari hamda madaniy taraqqiyoti haqida chuqurroq bilimga ega bo'lish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Хўжамбердиев Ё. Сурхондарё топонимлари тарихидан. – Термиз, 2013.
2. Begmatov E. Joy nomlari – ma'naviyatimiz ko'zgusi. – Toshkent: Ma'naviyat, 1995.
3. Миракмалов М.Т. Узбекистан топонимларининг табиий географик хусусиятлари ва географик лингвистика. География фанлари доктори диссертацияси автореферати. — Т.:2020
4. Хусанов Х. Географик номлар сири: илмий — оммабоп таъриф. -Т.: “Узбекистон”, 1985
5. Madrahimov Z. Tarixiy toponimika. – Toshkent: Navro'z, 2017